

## CHILLA DAVRI ENDOMIOMETRITI

**Suvonqulova Zarifaxon**

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Qo'qon jamoat salomatligi texnikumi  
Akusherlik va ginekologiya fani o'qituvchisi.  
Qo'qon, O'zbekiston.*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada, tug'ruqdan so'ng chilla davridagi ayol ichki jinsiy a'zolarida uchraydigan chilla davri endomiometrit kasalligi klinik belgilari va kasallikni davolash xususiyatlari haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *endomiometrit, lohimetra, metrotromboflebit, subfebril isitma.*

**Аннотация.** В статье описаны клинические признаки и особенности лечения эндомиометрита, возникающего во внутренних половых органах женщин в послеродовом периоде.

**Ключевые слова:** *эндомиометрит, лохиметра, метротромбофлебит, субфебрильная лихорадка.*

**Abstract.** This article describes the clinical signs and treatment features of endomyometritis, which occurs in the internal genital organs of women during the postpartum period.

**Key words:** *endomyometritis, lochimetra, metrothrombophlebitis, subfebrile fever.*

Endomiometrit (bachadon shilliq qavat yallig'lanishi) ko'pincha alohida kasallik sifatida uchraydi. Bunda ba'zan shilliq va muskul qavatlarning yallig'lanishi bir vaqtda avj olib borib, bachadonning shilliq qavatlaridan boshlanadi. Endometritning asosiy belgilari: bachadon yomon qisqaradi, qorin pasti og'riydi, darmon quriydi, kindan biroz qoramtilrangli, ba'zan qo'lansa hidli ajralma oqadi. Agar infeksiya bachadonning ichida bo'lsa, ayolning harorati ko'tarilib 38-39 gradusga chiqadi, tomir urishi tezlashadi, sel kam ajraladi yoki butunlay to'xtab qoladi, buni lohimetra deyiladi. Bu esa alohida kasallik sifatida uchraydi. Ba'zan harorat ko'tarilmasligi xam mumkin. Endometrit chilla davrida eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biridir. Endometrit belgilariga qarab davolanadi. Shuni ham aytish kerakki, antibiotik berishdan oldin qindan kelayotgan ajralma analiz qilinadi, bachadon og'zidan surtma olib, bakteriologik tekshirish va mikroblar qaysi antibiotikka ta'sirchan ekanligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayolning chot oralig'ida va tug'ruq yo'llarida jarohat bo'lib, u tikilgan bo'lsa, kuniga 2-3 martadan dezinfeksiyalovchi eritma bilan yuviladi, keyin 5% li yod eritmasi surtib, so'ngra sterillangan choyshabcha beriladi. Mana shu muolajani ayol peshob ajratgandan so'ng har gal albatta takrorlash zarur.

Chilla davrida uchraydigan infektion kasalliklardan yana biri bachadon muskul qavatining yallig'lanish miometritdir. Bu kasallik endometritda mikroblarning limfa yoki qon tomirlari orqali bachadonning chuqur qavatlariga tarqalishi natij asida yuzaga keladi. Endometrit ko'pincha chillaning 7-kunlaridan so'ng tana haroratining oshishi bilan boshlanadi. Ayolning umumiy ahvoli yomonlashib, ish taxasi pasayadi. Kam uyqu bo'lib qoladi. Tili karash bog'laydi. Bachadon yomon qisqaradi. Bachadon qorin devori orqali

ko‘rilganda, uning yon devorlarida og‘riq seziladi, buni metrotromboflebit yoki vena qon tomirlarining yallig‘lanishi deyiladi. Qin orqali ko‘rilganda bachadon bo‘yni chilla davrining 9-10- kuni ham berkilmaganligini aniklanadi. Kasallikning boshida tana harorati 38-40 daraja bo‘lsa, keyinchalik subfebril, ya’ni 37-37,5 gacha bo‘ladi. Qindan ajralayotgan aj ralma kasallikda ko‘p miqdorda va yiringli bo‘lib, asta-sekin tozalanib boradi. Kasallik 3-4 haftagacha cho‘ziladi. Davolash endometritdagi kabi: har tomonlama ta’sir ko‘rsatuvchi antibiotiklar beriladi.

Hozirgi davrda antibiotiklarni ko‘p mikroblarga bir vaqtida har tomonlama ta’sir ko‘rsatadigan turlari keng ko‘llanilmoqda. Bularga sefamed, lendasin (seftriakson) 1g t/i mahaldan 3 kun, megasef 750 mg v/i 3 maxal kuniga 3-5 kun davomida, yuborish mumkin. Anaerob infeksiyaga qarshi albatta ornizol 0,5 gr 2 mahal 5 kun yoki metrogil 100 ml (500mg) dan 2 maxal v/i tomchilab 3-5 kun qo‘llaniladi. Zamburug‘larni oldini olish uchun diflyuzol, diflazon (flukonazol) yoki fluzamed, fungikeyr 150 mg haftada 1 marta ko‘llaniladi. Nospetsifik yallig‘lanishga qarshi va og‘riq qoldiruvchi vositalardan dikloberl, kladifen (diklofenak) 3 ml (75)dan mg m/o 5 kun. Oksitotsin 0,5 ml dan kuniga 2 marta teri ostiga yuboriladi. Organizm chidamliligini oshirishga, isitmani tushirishga, opranizmdan zaharli moddalarni haydashga qaratilgan (0,9% li fiziologik suyuklik va 5% li glyukoza eritmasidan 400 ml va boshqa) tadbirlar ko‘llaniladi. Infeksiyaga qarshi mahalliy siteal va metrogil plyus vaginal geli ishlataladi. Ba’zan yetarlicha to‘la davolanmaganda bachadon qavatlarida yiring to‘planib, ayolning ahvoli og‘irlashadi, bunda operasiya yo‘li bilan davolashga va bachadonni olib tashlashga to‘g‘ri keladi. Sh uning uchun bunday kasallik bilan og‘rigan ayolni to‘la-to‘kis davolash va u doim shifokor nazoratida bo‘lishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):**

1. Boxodirov K., Boboxodjayev N. Sog‘lig’ingiz o‘z qo‘lingizda. — T.: Meditsina. Mahkamov M., Sodiqov Q.
2. Valeologiya asoslari: (o‘quv qo‘llanma) / D.D.Sharipova (va boshq.); O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: Musiqa, 2010. - 116 b. I.Sharipova, D.D., va boshqalar.
3. Allayorov Ya.N. Akusherlik va ginekologiya: o‘quv qo‘llanma/ Ya.N.Allayorov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
4. Parpiyeva, O. R., Nazarova, D., Ro’ziboyeva, O., & Jumaboyeva, M. (2024). SALOMATLIK–OLIY QADRIYAT SIFATIDA. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(27), 79-81.
5. Parpiyeva, O. R., & Ostanaqulov, A. D. (2019). Health theory. Форум молодых ученых, (6 (34)), 26-28.
6. Parpieva, O. R. (2023). HEALTH IS THE HIGHEST VALUE. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(11), 760-763.
7. Parpiyeva, O. R., & Dzhaldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.



8. Parpiyeva, O. R. (2021). Основы медицинских знаний (часть I). Учебной пособие.
9. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproduktiv salomatlik. O'quv qo'llanma. Fergana, Uzbekistan.
10. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductive health.